

UBAYDULLOHXONNING HARBIY YURISHLARI VA UNING AHAMIYATI

Bobohonov Lochinbek Yunusali o'g'li

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi magistranti
e-pochta officialbobokhonov@gmail.com Tel: +998945142227*

Annotatsiya: Ushbu maqola XVI asr boshlarida Movarounnahrda hukm surgan murakkab siyosiy-harbiy vaziyat sharoitida Shayboniylar sulolasi sarkardasi Ubaydulloxon (Ubaydulloh Sulton)ning harbiy faoliyati va uning tarixiy ahamiyatini tadqiq etadi. Maqolada asosan 1512 yilda bo'lib o'tgan ikkita muhim jang — Ko'li Malik jangi va G'ijduvon jangi batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ubaydulloxon, Ko'li Malik jangi, G'ijduvon jangi, Shayboniylar, Bobur Mirzo, Safaviylar, Movarounnahr, harbiy yurishlar.

Аннотация: В данной статье исследуется военная деятельность и историческое значение Убайдуллахана (Убайдуллах Султана), полководца Шейбанидской династии, в сложной политико-военной обстановке, сложившейся в Мавераннахре в начале XVI века. Основное внимание уделяется двум крупным сражениям 1512 года — битве при Кули-Малик и битве при Гиждуване.

Ключевые слова: Убайдуллахан, битва при Кули-Малик, битва при Гиждуване, Шейбаниды, Бабур Мирза, Сафавиды, Мавераннахр, военные походы.

Annotation: This article examines the military activities and historical significance of Ubaydullah Khan (Ubaydullah Sultan), a commander of the Shaybanid dynasty, in the complex political and military situation that prevailed in Transoxiana (Mawarannahr) at the beginning of the 16th century. The article focuses on two major battles that took place in 1512 — the Battle of Kul-i Malik and the Battle of Ghijduvan.

Keywords: Ubaydullah Khan, Battle of Kul-i Malik, Battle of Ghijduvan, Shaybanids, Babur Mirza, Safavids, Transoxiana (Mawarannahr), military campaigns.

Ma'lumki, Ubaydulloxonning hayoti va faoliyati, bir tomondan - temuriylar saltanatining inqirozi, ikkinchi tomondan, shayboniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelgani, uchinchi tomondan, Eron, Xuroson va Movarounnahrda sunniy va shia mazhablari o'rtasidagi kurashning keskinlashuvidan iborat murakkab bir tarixiy vaziyatga to'g'ri keladi.

Aynan shu ma'noda, Ubaydulloxonning hayoti davomida, xususan, uning harbiy faoliyatida murakkab vaziyatlar juda ko'p bo'lgan. U oz sonli qo'shini bilan bir necha marta dushmanlari ustidan hayratlanarli va ajoyib g'alabalarga erishgan.

Shu jumladan, o'sha davr tarixchisi Hasanxoja Nisoriy o'zining "Muzakkiri ahbob" asarida ta'kidlashicha, "Aksar muhoribalarda oliy lutfu karamlar egasi bo'lmish amakisi xizmatida bo'lib, g'am-tashvish dog'ini o'zining obdor o'tkir tig'i sayqali bilan uning dil oynasidan yuvib ketkazgan.

Fathu inoyatlar eshiklarini ochuvchi hazrat qayerda davlat qopusini Shayboniyxon yuziga ochgan bo'lsa, uning kalitini Ubaydullohxonning fath oinli qilichsiz tasavvur etish mumkin emas va qayerda davlatu mulk oshig' (Shayboniyxon) i to'y hashamini hozirlasa, suyukligining yuzi (fath etilajak o'lka, shahar) Ubaydulloxonning zafar keltiruvchi tig'i oynasiz jamol ko'rsatmas edi"⁸²".

Zero, Ajalning ming bir zarbasi va taqdir o'yinlariga chap berib, nafaqat o'zi va lashkari muhofazasini, balki ota yurt - Turkiston mustaqilligini ham saqlab qola olgan. Bu yerda Ubaydullaxonning 1512 yilda Buxoro atroflarida o'tkazgan asosiy ikki jangi haqida so'z yuritmoqchimiz. Mazkur janglar nafaqat turkiy xilqlar, balki jahon harbiy san'ati tarixida ham o'chmas iz qoldirgan. Asrlar davomida muarrixlar bu ikki jangda o'z munosabatlarini bildirib, Ubaydulla Sultonning harbiy mahorati sarkardalik iste'dodini tan olishgan. Aynan shu ma'noda, tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Marv atrofida 1510 yil dekabrda Muhammad Shayboniyxon (1451- 1510) Eron shohi Ismoil I Safaviy (1487-1524) bilan olib borilgan jangda halok bo'lgach, ksyinchalik, Shayboniyxon asos solgan davlatning qayta tiklanishi, qaror topishi va mustahkamlanishida Ubaydulloxonning xizmatlari katta bo'ldi.

Zero, Shayboniyxon Marv viloyatida shahodat sharbatini ichgunga qadar davrgacha Ubaydulloxon shu amakisi uzangisi xizmatida bo'ldi va xonga tarafdorlik qilichini sarpab, amakisining buyrug'i bilan viloyatlarni fath etib yurdi.

Shayboniyxon Marv qal'asiga kelib, bekinganda Ubaydulloh Sulton hammadan oldin Amudaryoni kechib, xon turgan tomonga yo'naldi va aynan, xon hazrat ul viloyatda shahidlik darajasini topgan o'sha juma kunisi Ubaydulloh Sulton namozgar payti Marvga kirib borib, Muhammad Shayboniyxonning muhtaram xarami bo'lmish Mo'g'ul xonim (asl ismi Oysha Sultonbegim, Boburning tog'asi Toshkent hokimi Mahmudxon Qoshg'ariyning qizi)ni olib, Marvning bu darvozasidan chiqqan payti qizilboshlar boshqa bir darvozadan kirib kelishgan ekan⁸³.

Dastlab safaviylar qo'shinining Movarounnahr ichkarisiga bostirib kirishidan cho'chigan Ubaydulloxon va Shayboniyxonning o'g'li Muhammad Temur Sulton shoh Ismoil I bilan elchilar almashib, sulh tuzishga uringanlar.

Bu paytda Ismoil I Safaviylar davlatining siyosiy manfaatlarini ko'zlab, temuriyzoda Bobur Mirzo (1483-1530)ga Movarounnahrni shayboniylardan tortib olishiga yordam ber- moqchiligini aytib, uni jang qilishga undaydi⁸⁴. Shundan so'ng, Bobur mirzo pahlavon turkman lashkari ko'magida Xamza sulton, Mahdi sulton ustiga cheksiz lashkar tortib borib, ularni shahid qildi va Hitori Shodmon, Chag'oniyon, Dehnaviyni egallab, yo'nalish bayrog'ini Movarounnahrni qo'lga kiritmoq uchun hilpiratdi.

⁸² Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. T.: xalq merosi nash., 1993. B.21-22.

⁸³ Мухаммадёр ибн Араб Қатаған. Муссаххир ал-билод (Мамлакатларнинг эгалланиши). / [Форс тилидан тарж., изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Исмоил Бекжонов ва Дилором Сангирова]. Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. Б.132-133.

⁸⁴ Ражабов Қ. Ўша рисола. - Тошкент, АБУ МАТБУОТ-КОНСАЛТ, 2011. Б.7-8

Usha choqda Ubaydulloh Sulton zamon talabiga ko'ra va boshqa shayboniy sultonlarning maslahatiga binoan bu yerni tashlab chiqib, qaytish jilovini Turkiston tomonga burdi⁸⁵.

Darhaqiqat, Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng shaybo- niylar sulolasi xoni Ko'chkunchixon (hukmronlik davri: 1510- 1530)⁸⁶ning asosiy noibi (1510 yildan) va Buxoro hokimi (1504 yildan) sifatida Ubaydulloh Sulton, ya'ni Ubaydulloxon dushmanga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rgan va Ubaydulloh Sulton avval Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy maqbarasi yonida 1512 yil 7 aprelda qurultoy chaqirib, agar Movarounnahrni qaytarib olishga muvaffaq bo'lsa, bir umr dindor hukmdor bo'lib qolishga qasamyod qiladi va o'z qo'shini bilan harbiy yurishga (hijriy 918 yil safar oyi, 1512 yil 17 aprel - 16 may oralig'i) o'tlanadi. Biroq uni faqat Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton kabi shayboniy sultonlari qo'llab-quvvatlaydi. 1512 yil aprel oyining oxirida cho'l tarafdin Yettiquduq va To'rtquduq orqali G'ijduvonga kelgan Ubaydullohxon bopgchiligadagi qo'shin (taxm. Bir-ikki parsiz o'q bilan qurollangan 1800 jangchilar edi⁸⁷) Buxoro shahriga hujum qilib, uni qamal etadi. Buxoro dorug'asi Shirim tog'oyi (Shirimbek) bu haqda Samarqandda turgan Boburga xabar yetkazadi⁸⁸. Mazkur davrdagi siyosiy jarayonlar Muhammad Yusuf Munshining "Tarixi Muqimxoniy" asarida quyidagicha tasvirlanadi: "Ubaydullaxon 2800 kishilik qo'shini bilan Buxoroga qarab yurdi. Bobur podshoh unga qarshi jashga kirdi. Ubaydullaxon bu jangda g'alaba qozondi. Bobur yengilib, ortga chekindi va butun Movarounnahr shayboniy sultonlar qo'liga o'tdi.

Ubaydullaxon Buxoroda qoldi. Karmana va Miyonqol esa bir necha tumanlari bilan Jonibek sultonga tegdi⁸⁹. Hasanxoja Nisoriy (1516-1597)nish «Muzakkiri ahbob» («Do'stlar yodnomasi») tazkirasida yozilishicha, Bobur 60000 kishilik qo'shin bilan Samarqanddan yo'lga chiqib, Buxoroga yaqinlashadi. Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, Ubaydulloh Sulton atigi 2 600 nafar saralashan yigiti⁹⁰ (boshqa bir manba, ya'ni Nisoriyga ko'ra, uning qo'shini 3000 nafar deb ko'rsatilgan⁹¹) bilan Buxoroning Xayrobod tumanidagi Ko'li Malik qirg'og'ida turgan Bobur lashkariga to'satdan hujum qilgan. Bu jang 1512 yil 28 aprelda bo'lib, tarixda Ko'li Malik janga sifatida nom qoldirgan⁹². Jang boshlanishidan oldin Ubaydulloh Sulton harbiy hiyla ishlatgan. U o'zining xufiyalari orqali Boburning katta qo'shin bilan Buxoroga kelayotganligini eshitgach, Buxoro qamalini to'xtatgan va go'yo qochgandek bo'lib Xorazm yo'li tomonga chekingan. Bu holni ko'rgan Buxoro dorug'asi Boburga «o'zbeklar qochdi», degan xabarni yetkazadi.

⁸⁵ Мухаммадср ибн Араб Катаган. Ўша манба. Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. Б.133.

⁸⁶ Пардаев К. XVI-XVII асрларда Миёнкол (монография). Тошкент: Турон Замин Зиё, 2014. Б.55.

⁸⁷ Мухаммадёр ибн Араб Катаган. Ўша манба. Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. Б. 133.

⁸⁸ Ражабов Қ. ўша рисола. - Тошкент, АБУ МАТБУОТ КОНСАЛТ, 2011. Б. 8.

⁸⁹ Мухамед Юсуф Мунши. Муким-ханская история. / Пер. С тадж., предисл., примеч., и указатели А.А. Семенова. - Ташкент: Изд-во АН Уз ССР, 1956. стр. 54.

⁹⁰ Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом («Шарафномаи шоҳий»). Икки жилдлик. 1- жилд. - Тошкент, 1999. Б. 60.

⁹¹ Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб (Дўстлар ёдномаси): таъкира [(тарж. ҳамда сўз боши ва изоҳдар муаллифи Исмоил Еекжон)]. Т.: халк мероси наш., 1993. Б. 21-22.

⁹² Ражабов Қ. Убайдуллахоннинг икки жанги. // "Вазият", 2005-йил, 16-30- ноябр.

Bobur esa katta miqdordagi qo'shin bilan bamaylixotir Buxoroga yaqinlashadi. Ubaydulloxon atigi 2500- 3000 nafar askari bilan Bobur lashkariga to'satdan hujum qilgan. Ushbu ikki o'rtadagi urush olovi qattiq alanga oldi va azim bir jang bo'ldi⁹³. Ancha olishuv va harakatlardan so'ng Bobur lashkari tor-mor keltirilgan. Shunda Bobur jang maydonidan yuz o'girib, avval Buxoroga, ertasi kuni Samarqandga chekinadi va vaziyat mushkulligini sezib, bir kundan so'ng oilasini olib Hisor tomonga ketadi. Movarounnahr yurti qaytadan shayboniy sultonlar tasarrufi doirasiga kirdi. Ko'li Malik jangida (1512 yil 28 aprel) qozongan shonli g'alabasidan keyin Ubaydulloh Sulton (Ubaydulloxon) Buxoro va Samarqandni egallagan edi. Biroq oradan ko'p o'tmay, "hijriy 918 (1512) yil rabiuloxir oyi boshlari (iyun oyi o'rtalari)da Eron shohi Ismoil I Safaviy yuborgan Najmi Soniy (laqabi, asl ismi Amir Ahmad) boshchiligidagi 80000 kishilik safaviylar qo'shiniga suyangan Bobur 1512 yil kuzida G'uzor va Qarshini egallaydi. Bu haqda Zayniddin Vosifiy yozib qoldirgan⁹⁴. Tarixchilarning yozishicha, Qarshi mudofaasi bartaraf etilgach, shahar xalqi eronliklar tomonidan qatliom qilingan.

Qarshida 15 000 kishi qilichdan o'tkazilgan. Ularning ichida mashhur shoir va tarixchi Kamoliddin Binoiy (1453-1512) ham bo'lgan. Movarounnahr ahli bundan dahshatga tushib, shialar (eron qizilboshlilari) va Bobur qo'shiniga nisbatan nafrati oshgan va Ubaydullaxonni ularga qarshi kurashga da'vat etgan. Muarrixlarning yozishlariga ko'ra, Bobur hamda Ismoil I oldida nufuzli bo'lgan Amir G'iyosiddin Muhammad ibn Amir Yusuf va hatto ayrim qizilboshlilar amirlari (bu paytda shialar qizilboshlilar deb atalgan) ham Qarshi shahri ichida hazrat Ali avlodiga mansub sayyidlar borligini bahona qilib, eronliklar sarkardasi Najmi Soniydan qatliom o'tkazmaslikni iltimos qilinganida, u bu fikrlarga quloq solmasdan, shahar aholisini ommaviy ravishda qirg'in qildirgan edi. Najmi Soniy qo'shini Qarshidagi «g'alaba»dan sarmast bo'lib, G'ijduvonni qamal qilishga kirishadi. Ubaydulla Sulton va Jonibek Sulton Karmanaga, Kuchkunchixon va Muhammad Temur Sulton Miyonqolga chekinib, hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rishadi⁹⁵. Turkiston shahridan yetib kelgan Ubaydulloh Sultonning piri va ustoz Mir Arab unga jang oldidan ko'rsatmalar berib va qo'shinni ruhlantirib, shayboniy sultonlarini G'ijduvon ustiga boshlaydi. Sultonlar qo'shini yetib kelmasidan oldin G'ijduvondagi oz sonli mudofaachilar qal'adan chiqib, dushman qo'shini bilan ahyon-ahyonda jangga kirishib turishgan.

Biroq, harbiy jang rejasini puxta amalga oshirgan Ubaydulloxon o'zining oz sonli harbiy dastasi bilan 918 yil 3-ramazonda yakshanba kuni, ya'ni milodiy 1512 yil 24 noyabrda G'ijduvon yaqinidagi Zarangaron qishlogida Najmi Soniy qo'shini ustiga to'satdan hujum qildi. G'ijduvon jangida Ubaydulloxon boshchiligidagi qo'shin Najmi Soniy va Bobur rahbarligidagi harbiy kuchlarni to'lg'ama usulida yenggan (jang chog'ida g'anim kuchlarini qanotlardan aylanib o'tish, yon va orqa tomondan zarba berish harbiy san'at tarixida to'lg'ama usuli deb nomlanadi). Dushman sarkardasi Najmi Soniy hatto

⁹³ Мухдмадёр ибн Араб Қатаған. Ўша манба. Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. Б. 133.

⁹⁴ Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоъ. [тарж. ҳамда сўз боши ва изоҳлар муаллифи Наим Норкулов]. Т.: Адабиёт ва санъат наш., 1979. Б. 8-40.

⁹⁵ Ражабов Қ. Ўша рисола. - Тошкент, АБУ МАТБУОТ-КОНСАЛТ, 2011. Б. 9

kiyimini kiyishga ham ulgurmay otga o'tirib qochayotganida Ubaydulloxon jangchilari tomonidan o'rab olingan va o'ldirilgan. Bu mag'lubiyatdan so'ng Bobur Xurosonga ketishga majbur bo'lgan va Movarounnahr taxtini egallash orzusidan uzil-kesil voz kechgan va Hisor tomonga chekinadi⁹⁶. Umuman, bu jangda shayboniylar katta o'lja va ko'p sonli asirlarni qo'lga kiritishgan. Katta miqdordagi qizilboshlilar qo'shinidan (taxminan 80000 kishi) faqat oz sonli shialargina eronga qaytishgan. G'ijduvon jangi Movarounnahrni eron safaviylari qizilboshlilar diniy istibdodidan saqlab qolgan va Turkistonda shayboniylar hukmronligini uzil-kesil qaror toptirgan hodisa sifatida tarix sahifalariga yozilgan. Shonli g'alabadan so'ng Ubaydulloh Sulton Buxoroni egallab, keyin Samarqandga keladi va o'z nomiga xutba o'qittiradi. Eronlik shialar (qizilboshlilar) zulmidan qutqarganligi uchun samarqandlik ulamolar Ubaydulloh Sultonni qizg'in olqishlashgan.

Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar «Tarixi Rashidiy» asarida yozishicha, «Ubaydulloxon odob yuzasidan o'zini xuddi o'ljasini taqsimlab bermoqchi bo'lgan ovchiday tutdi va katta amakisi (Ko'chkunchixon)ga bosh xonlik maqomi va poytaxt Samarqand taxtini berdi. Movarounnahrni boshqa yerlarini ham qarindoshlariga bo'lib berdi»⁹⁷. Masalan, Ubaydulloh Sulton Toshkent viloyatini Suyinchxojaxonga, Samarqand viloyatini Muhammad Temur Sultonga, Miyonqol viloyatini Jonibek Sultonga berib, o'zi Buxoro va Qarshi viloyatlarini olib, Buxoro shahri tomon yo'l olgan. Shunday qilib, 1512 yilda Ubaydulloxonning shijoati natijasida Movarounnahr yana shayboniylar qo'lga o'tgan⁹⁸. G'ijduvon jangidagi g'alaba Mir Arab (Amir Abdulla Yamaniy) tufayli qo'lga kiritilganligi bois safaviylar qo'shinidan tortib olingan katta o'ljaning asosiy qismini Ubaydulloxon o'z ustoziga topshiradi. Buyuk tariqat piri o'z navbatida, bu mablag'ga Buxorodagi mashhur Mir Arab madrasasini qurdiradi. (Ushbu madrasaga oid rasmlar risola oxirida ilova qilinadi). Ta'bir joiz bo'lsa, shuni ham aytish mumkinki, XVI asr boshlarida Muhammad Solih va asr oxirida Hofiz Tanishlarning eslatib o'tishlaricha, harbiy jangda yoqilg'i sifatida neftdan foydalanishganligi ya'ni, bunda qal'a devorlaridan turib urishganda dushmanga neft shimdirilgan latta o'ralgan yonuvchi o'qlarni yog'dirganlar, bu usha davr uchun «dahshatga soluvchi qurol» hisoblangan. Egelberg, Kempfer va Avliyo Chalabiylarning xabar berishlaricha, neft to'ldirilgan echki terisidan tikilgan meshlar turli mamlakatlar, jumladan, O'rta Osiyoga ham olib kelingan. Qurolsoz ustalar asosan bir turdagi qurollar yasashga ixtisoslashganlar. Ularning ustaxonalari ko'pincha savdo rastalari qatoridan o'rin olgan. Buxoro va Samarqandda sovutsozlar, o'qchshtar, kamonsozlar va boshqa ustalarning maxsus savdo rastalari va yopiq bozorlari bo'lgan. XVI asr boshigacha qurol-aslaha ishlab chiqarish markazi Samarqandda qilich, tig', shamshir, pichoq, turli xildagi kamon va o'qlar, nayza yasovchi ustalar sotish uchun va buyurtma bo'yicha turli-tuman qurollar tayyorlaganlar.

⁹⁶ Семенов А.А. Первеш Шейбанидн и борьба за Мавераннахр // Материалн по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Выш. I. (Тр. АН Тадж. ССР. Т.ХН.). - Сталинабад: Изд-во АН Тадж. ССР, 1954. - С.138.

⁹⁷ Муқаммад Ҳайдар Мирзо. Ўша манба. Т.: Шарқ наш., 2010. Б. 399.

⁹⁸ Ражабов Қ. Ўша рисола. - Тошкент, АБУ МАТБУОТ-КОНСАЛТ, 2011. Б. 10-11.

Xulosa. Ubaydulloxon 1512 yilning qisqa muddati (sakkiz oy) ichida Movarounnahrning taqdirini hal qiluvchi ikkita hal qiluvchi jangda (Ko'li Malik va G'ijduvon) porloq g'alabalarga erishdi. Oz sonli, ammo yaxshi tashkil etilgan va ruhiy jihatdan mustahkam qo'shini bilan son jihatdan ancha ustun bo'lgan dushman kuchlarini tor-mor keltirdi. Bu g'alabalar natijasida: Movarounnahr Shayboniylar sulolasi qo'liga qaytdi; Temuriylar vorisi Bobur Mirzoning mintaqadagi da'volari barham topdi; Eron Safaviylari (qizilboshlar)ning diniy-siyosiy kengayishi to'xtatildi va mintaqa sunniy islom madaniyati ta'sirida qoldi. Ubaydulloxonning harbiy iste'dodi, shijoati va o'z vaqtida qabul qilingan to'g'ri qarorlari nafaqat Shayboniylar davlatining tiklanishida, balki butun Turkistonning keyingi taqdirida muhim rol o'ynadi. Uning g'alabalari jahon harbiy san'ati tarixida ham ahamiyatli bo'lib, oz kuch bilan ko'p sonli dushmanni mag'lub etishning yorqin namunasi sifatida qolmoqda. Ubaydulloxonning bu xizmati faqat harbiy emas, balki siyosiy va ma'naviy jihatdan ham juda katta ahamiyatga ega: u Turkistonni begona diniy istibdoddan himoya qilib, mahalliy davlatchilik an'alarining davom etishiga zamin yaratdi. Shuning uchun uni Shayboniylar davlatining asoschilaridan biri va mintaqa mustaqilligi uchun kurashgan buyuk sarkarda sifatida baholash joizdir.

Ushbu janglar nafaqat o'sha davr uchun, balki keyingi asrlar davomida O'rta Osiyo xalqlari milliy ongida muhim o'rin egallab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Муқаммад Ҳайдар Мирзо. Ўша манба. Т.: Шарқ наш., 2010.
2. Ражабов Қ. Ўша рисола. - Тошкент, АБУ МАТБУОТ-КОНСАЛТ, 2011.
3. Семенов А.А. Первыш Шейбанидн и борьба за Мавераннахр // Материалн по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Выш. I. (Тр. АН Тадж. ССР. Т.ХН.). - Сталинабад: Изд-во АН Тадж. ССР, 1954.
4. Ҳасанхожа Нисорий. Музақкири аҳбоб (Дўстлар ёдномаси): тазкира [(тарж. ҳамда сўз боши ва изохдар муаллифи Исмоил Бекжон)]. Т.: халк мероси наш., 1993.
5. Мухдммадёр ибн Араб Қатаған. Ўша манба. Тошкент: Янги аср авлоди, 2009
6. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом («Шарафномаи шоҳий»). Икки жилдпик. 1- жилд. - Тошкент, 1999
7. Пардаев К. XVI-XVII асрларда Миёнкол (монография). Тошкент: Турон Замин Зиё, 2014.